

## ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARINI ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA QO'LLASH MAHORATI YUZASIDAN METODIK TAVSIYA

*Avezimbetova Ibodat Kuchkarovna*

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Ellikqal'a tumani 71-sonli ayrim fanlari chuqur  
o'qitiladigan sinflari mavjud umumiy o'rta ta'lim maktabning  
ona tili adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu metodik tavsiyada ona tili va adabiyot darslarida innovatsion texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, olingan axborotlarni faollikda hal etishga, fikrni erkin bayon etishga, tashabbuskorlikka, hamkorlikda ish yuritishga, fikrni yozma ravishda bayon etishga chorlashi haqida fikr yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** ona tili, adabiyot, dars, innovatsion texnologiya, metod, o'yin, usul.

Bugungi kunda jamiyatimizda yangi ijtimoiy munosabatlarning shakllanishi, ta'limning jahon ta'lim tizimiga integratsiyalashuvi zamonaviy pedagogik texnologiyalarda yangicha yondashuv zarurligini taqozo etmoqda. Bu yondashuvlar o'z navbatida o'quv jarayonining tashkiliy va metodik jihatlariga muayyan ijobiy o'zgarishlar olib kirmoqdaki, ularning ko'pchiligi pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat bilan uzviy bog'liq. Har bir darsni o'ziga xos usul asosida o'tish, o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, uning qalbida ilmga muhabbat uyg'otish o'qituvchining mahoratiga bog'liq. Muallimning mahoratini oshirishga xizmat qiluvchi vositalardan biri zamonaviy pedagogik texnologiyalardir. Zamonaviy pedagogik texnologiya – hozirgi zamon didaktikasi va pedagogikasi taraqqiyotining mahsuli. Har bir zamonaviy pedagog mavjud pedagogik texnologiyalarni o'z darslarida qo'llasa, albatta ijobiy natijaga erishadi. Umumiy o'rta ta'limda ona tili va adabiyot fanining o'rnini beqiyosdir.

Mantiqiy va erkin fikrlovchi, dunyoqarashi keng, ijodiy va badiiy tafakkurga ega shaxsni kamol toptirish ona tili va adabiyot fanining bosh maqsadidir. Allomalarimiz aytganidek: “Dunyodagi jamiki fazilatlar inson qalbiga, avvalo, ona tilining betakror jozibasi bilan singadi”. Shunday ekan, o'quvchilarni mangu el – ona zaminga mehr-muhabbat, vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari, eng avvalo, ona tilini o'qitish jarayonida amalga oshiriladi. Bu hol yosh avlodni kamol toptirishda ona tili va adabiyot o'qituvchisining xizmati naqadar mas'uliyatli ekanligidan dalolat beradi. Zero, dars – muqaddas! Demak, maqsad bitta, u ham bo'lsa, o'quvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiya sifatini oshirib, ularda kommunikativ salohiyatni shakllantirish, mustaqil hayotda o'z fikriga, o'z so'ziga ega bo'lgan vatanimiz ertangi kunini dadil davom ettirib,

yuqori marralar sari intiladigan yoshlarni tarbiyalashdan iborat. Pedagogik texnologiyalarning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshadi. O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi o'qitish jarayonining asosi sanaladi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan “Aqliy hujum”, “Klaster”, “VENN diogrammasi”,



“BBB”, “FSMU” kabilar dars jarayonida o'zlarining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. “Qiyoslash metodi”, “Davra metodi”, “6x6x6” kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Xususan, “Qiyoslash metodi”dan adabiyot fanida Odil Yoqubov hamda Pirmqul Qodirov hayoti va ijodi o'rganilgandan so'ng mavzuni mustahkamlash uchun foydalanilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Buning uchun o'quvchilar uch guruhga bo'linib oladilar. Birinchi guruhga Odil Yoqubov va Pirmqul Qodirovning hayot yo'li va bundagi o'zaro o'xshashliklar, ikkinchi guruhga ularning ijodiy merosi va yaratgan qahramonlari hamda ularning o'xshash zamonlari, uchinchi guruhga esa ularning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar xususida fikrlarni umumlashtirish, jamoa bo'lib taqdim qilish so'raladi. Shuningdek, ona tili fanidan “Gapning ikkinchi darajali bo'laklari” mavzusi o'rganilgandan so'ng



o'quvchilarga “Guruhlarda ishlash metodi” asosida “Men to'ldiruvchiman!” mavzusida ijodiy matn tuzish topshiriladi. Bu topshiriq yakka tartibda, kichik yoki yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham bajarilishi mumkin. Mavzu yuzasidan matn o'quvchilar tomonidan taqdim qilinadi. Bu metod orqali o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma yoki og'zaki savodxonligi o'stirilib, ijodiy matn yaratish malakasi mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlosi savodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin. Jumladan, “Morfologiya” bo'limini o'tish jarayonida har bir so'z turkumi yuzasidan grammatik ertak yaratish vazifasi topshirilsa, o'quvchilarning grammatik savodxonligi o'sish bilan bir qatorda, mantiqiy mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodkorligi oshadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirib, ta'lim jarayonining markaziga o'quvchi- talabalarning o'quv-biluv faoliyatini qo'yadi, ta'lim jarayoni yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-biluv faoliyatini tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishdir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, o'quv-tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi lozim. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda.

Yangi metodlarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan biri hisoblanadi. O'qituvchi dars jarayonida boshqa ma'lumotni berish bilan bir qatorda internet ma'lumotlari, multimedia dasturlari, jadvallar va shunga o'xshash mavzuga oid qo'shimcha ma'lumotlarni ko'rsatib o'tsa, bu nafaqat o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki o'quvchilarning mustaqil o'qishini talab darajasida shakllantirishiga, mavzuni imkon darajasida to'la o'zlashtirishiga ham yordam beradi.

“Aqliy hujum”. Bu hujum ona tili va adabiyot darslarining boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanishi mumkin. Bu boqichda muammo o'quvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali ochiladi. “Aqliy hujum” metodi biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladi. “Aqliy hujum” metodi yordamida qo'yilgan muammo yuzaridan bir necha echimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi.

“She'r matnini tiklang” metodi. Bu o'yin mavzudan tashqari shu bilan birga mavzu yuzasidan olib borladigan o'yin hisoblanadi. Bunda o'qituvchi doskaga berilgan she'r matnini yozib, uni ikki qatordan qirqib olib, aralashtirib yuboradi. O'quvchilar tezlikda xotiralaridan kelib chiqib she'r matnini tiklab yopushtirib sinf doskasida ifodali holda aytib berishadi.

Bu metod orqali o'quvchilarni yod olganliklari tekshiriladi. O'quvchilar bir-birlari bilan birgalikda uyushib ishlash qobiliyatlarini shakllanishiga sababchi bo'ladi.

“Svetafor” usuli. Bunda o'quvchilarga ma'lumotlar aytiladi. Javob to'g'ri yoki noto'g'riligiga qarab o'quvchilar qizil, yashil, sariq kartochka ko'taradilar.

1. Grimmilar yozgan “Bolalar va oilaviy ertaklar” nomli kitobi besh jildlik. O'quvchilar bunda qizil kartochka ko'taradilar



Chunki javob: uch jildlik.

2. “Bolalar va oilaviy ertaklar” kitobiga ikki yuzdan ortiq ertaklar jamlangan. O'quvchilar bunda

Yashil kartochka ko'taradilar.



Javob to'g'ri.

“Ma'noli surat” metodi .Bunda o'quvchilarga rasm ko'rsatiladi va rasm obrazlariga ta'rif beradilar.

“Bo'g'in” o'yini. O'qituvchi sinf taxtasiga bir bo'g'in yozadi. O'quvchilar so'z boyliklaridan foydalangan holda shu bo'g'in bilan boshlanuvchi so'zlardan yozadilar. Masalan, bo-bo-la, bo-dom, bo-shoq; sa-sa-far, sa-daf, sa-har-lab...

“Grafik test” metodi. Bunda o'quvchilar Botir tikuvchi ertagiga mos ma'lumotlarni bo'yadilar.

XIRS	SHE'R	MATAL	500	HIKOYA	1909	BAQA
KREZ	VARSAKI	TO'TI	GANS	KOMILA	SHER	CHO'PON
OYGUL	AJDAR	YAKOB	SAHIH	ULKAN ODAM	OTA	TOKZOR
SAMOS	QUSHCHA	DELFA	„JINOYAT“	TARLON	G'OR	ZAG'CHA
YAKKASHOX	PISHLOQ	QUSHCHA	PASHSHA	TIKUVCHI	OLXO'R	VILGELM

„KO'KLAM”	JIRJON	CHISTON	USHUK	QUL	MASAL	EZOP
MAQOL	FRIGIYA	ROVIY	21 YOSH	JAMBIL	BO`RI	BURGUT

“So‘zdan so‘z yasash” o‘yini. Bu o‘yin o‘quvchilarni so‘z boyligini oshirishga, qayta xotirlashga va mantiqan fikrlashni kengaytirishga undaydi. Yozuv taxtasiga o‘qituvchi tomonidan bir so‘z yozib qo‘yiladi. Shundan so‘ng o‘qituvchi ma‘lum vaqt davomida ana shu so‘z harflaridan foydalangan holda boshqa so‘z yasashlarini aytadi. Belgilangan vaqtda qaysi o‘quvchi ko‘proq so‘z yoza olsa, shu o‘quvchi g‘olib bo‘ladi.

“Guldasta” metodi. Bu juda oz fursat ichida o‘tkaziladigan metod bo‘lib, juda qiziqarli. Bunda o‘qituvchi tomonidan yasab kelingan gullar o‘qituvchi stolida bo‘ladi. gullarning yaproqlarida x va h harflari qatnashgan so‘zlar bo‘ladi. Sinf o‘quvchilari ikki guruhga bo‘linadi. O‘qituvchi birinchi guruhga x harfi qatnashgan so‘zlarni ya‘ni gullarni terib guldasta qilishlarini ikkinchi guruhga harfi qatnashgan gullarni terishlarini so‘raydi. Qaysi guruh 10 ta gulni birinchi bo‘lib bexato guldasta qilib yig‘sa, shu guruh g‘olib sanaladi.

“Xotira mashqi” o‘yini. Ushbu metodda mavzuga oid so‘zlar takrorlash va eslab qolish maqsadida shu metoddan foydalaniladi. Ot - turdosh ot - taqlid so‘zlar- ravish... Bu metod orqali o‘quvchilarda unli va undosh harflari qatnashgan so‘zlarni ajrata bilish qobiliyati kuchayadi. Fikrlash va qo‘l motorikasi rivojlanadi. Ta‘lim olishni chegarasi va vaqti yo‘q. Chunki zamon shiddat bilan o‘zgarib borayotgan bir vaqtda, axborot olami juda cheksiz va kengdir. Shu sababli hozirgi zamon o‘qituvchisi, hozirgi zamon o‘quvchisini hayratda qoldiradigan uni e‘tiborini tortadigan darslarni tashkil etishi kerak.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarni mustaqil, erkin fikrlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondashish, mas‘uliyatni sezish, tahlil qilish, eng asosiysi, o‘quvchini qo‘zg‘atishga qaratilganligi, pedagogning o‘z tanlagan kasbiga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Gulomova M.X., Sobirova N.K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish usullari – T.: 2009
2. Sayidaxmedov N. Pedagogik amaliyotda yangi texnologiyalarni qo‘llash namunalari. — T.: RTM, 2000. — 46 b.
3. Gulomova M. X., Sobirova N. K. Yangi innovatsion texnologiya yordamida ta‘lim samaradorligini oshirish usullari // Innovatsiya o‘quv jarayonida (tezislar to‘plami). –T.: 2009.– 106 b.